

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXXII sessiyasi bo'lib o'tdi



Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXXII sessiyasi bo'lib o'tdi Sessiyada deputatlar, sektor rahbarlari, shahar hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari, kun tartibidagi masalalarga aloqador tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirok etdi.

Kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

- Termiz shahridagi "Manguzar" va "Tuproqqo'rg'on" MFY profilaktika inspektorlari tomonidan hududlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida;
- Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish, hududning arxitektura qiyofasini o'zgartirish va yaxshilashga qaratilgan investitsiya va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish doirasida Termiz shahar "Shodlik" MFYdagi Barkamol avlod Toxariy (S.Soxibov) ko'chalarida joylashgan ikki qavatli turar-joy binolari joylashgan yer uchastkalarini olib qo'yish to'g'risida;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 17 yanvardagi PF-5633-sonli Farmonining shahardagi ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Termiz shahridagi Xalq qabulxonasi mudiri Sh.X.Saodatovning axboroti;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5718-sonli Farmonining shahardagi ijrosi bo'yicha Termiz shahridagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi yetakchi mutaxassisi A.Pardaevning axboroti;

- Termiz shahar mahalliy byudjetining 2021 yil 1-yarim yilligida shakllangan erkin qoldiq mablag'larining maqsadli ishlatilishi to'g'risida va boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Deputatlar tomonidan har bir masala atroflicha muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilindi.